

*Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

***O'tanova Shaxnoza Maxmudovna***

Sarlavhada kinoya va kesatiqning ishlatilishi o'quvchida keskin munosabat uyg'otadi. Matnning asosiy g'oyasi aniqroq bo'lib, o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi. Ijtimoiy yoki siyosiy masalalarni muhokama qiluvchi matnlarda kinoya va kesatiq, ayniqsa, samarali vositalar hisoblanadi. Bunday matnlar sarlavhalar orqali o'ziga xos tanqidiy fikrlarni ifodalashi mumkin.

Kinoya va kesatiq sarlavhalarining turli tillarda ishlatilishiga oid misollarni keltirish orqali bu uslubiy birliklarning har xil madaniyat va til sistemalaridagi o'xshashlik va farqlarini ko'rish mumkin. Quyida ingliz, rus va nemis tillaridagi materiallardan bir nechta sarlavha misollarini ko'rib chiqamiz.

*Kinoya*

*"Oh, great! Another software update to slow down my phone."*

Bu sarlavhada kinoya orqali muallifning smartfon dasturlarining yangilanishlariga nisbatan noroziligi ifodalangan. Yuzaki qaraganda bu yangilanishlar foydali ko'rinishi mumkin, lekin kinoyaviy tarzda, muallifning aslida yangilanishni befoyda deb hisoblashini ko'rish mumkin.

*"Ну конечно, это самая умная идея, которую я слышал за неделю!"*

Mazkur sarlavha o'tkir kinoya bilan ifodalangan bo'lib, haqiqatda ushbu fikrni aqlsiz yoki ma'nosiz deb hisoblaydi. Bu yerda "eng aqli" degan ibora o'z ma'nosiga teskari keladi.

*"Noch ein Klimagipfel – sicher werden wir diesmal die Welt retten!"*

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

Bu sarlavha ham kinoyali tarzda yozilgan bo'lib, ko'plab iqlim sammitlarining haqiqiy natijasiz o'tganligiga ishora qiladi. "Bu safar dunyoni qutqaramiz!" degan ibora o'zida kinoyani aks ettiradi.

### *Kesatiq*

*Best airline ever: lost luggage, delayed flights, and amazing customer service!"*

Bu kesatiqli sarlavha ko'rinishidan samimiy minnatdorchilik bildirayotgandek tuyuladi, ammo aslida, o'tkir va kesatiq ohangda aviakompaniyaning sifatsiz xizmat ko'rsatishi tanqid qilinmoqda.

*"Великий ремонт: стены падают, а рабочие пьют чай"*

Bu sarlavhada "великий ремонт" (buyuk ta'mirlash) iborasi kesatiq orqali ifodalanib, aslida ta'mirlash ishlari yomon bajarilayotganligi masxara qilinmoqda. Ushbu sarlavha o'quvchini ta'mirlashning samarasizligiga e'tibor qaratadi.

*"Der perfekte Kundenservice: Keine Antwort und nie erreichbar!"*

Kesatiq bilan yozilgan ushbu sarlavhada "mukammal mijozlar xizmati" degan ibora bevosita masxara qilinmoqda, chunki bu yerda mijozlarga xizmat ko'rsatilmayotgani anglashilmoqda.

Misollardan ko'rinadiki, **ingliz tilida** kinoya va kesatiq odatda, samimiy yoki yengil ohangda ifodalanib, tanqid yoki norozi munosabatni oshkora ko'rsatadi. Bu orqali matnga kiritilgan shubha va qarama-qarshi nuqtai nazar o'quvchining diqqatini tortadi.

**Rus tilida** kinoya va kesatiq odatda keskinroq va o'tkirroq bo'lib, turli sohalar, masalan, siyosat yoki jamiyat haqida tanqidiy fikrlarni ifodalash uchun

qo'llanadi. Bunday sarlavhalar o'quvchini kuldirishdan ko'ra, fikrlashga yoki munosabat bildirishga undaydi.

**Nemis tilida esa,** kinoya va kesatiq ko'pincha aniq va bevosita bo'ladi. Bunda maqsad ma'lum bir holatni yoki faoliyatni o'tkir tanqid qilishdir. Bu tilga xos uslub matnda o'ziga xos pragmatik ta'sir ko'rsatadi.

Kinoya va kesatiq kabi lingvistik birliklarning sarlavhada kelishi matn mazmunining o'quvchi tomonidan qanday qabul qilinishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ingliz, rus va nemis tillarida bu vositalar madaniy kontekstga mos ravishda turlicha qo'llanilib, o'quvchining diqqatini jalb qiladi va tanqidiy tahlilga undaydi. Matn mazmuni va uslubiga bog'liq holda bunday sarlavhalar o'quvchida qo'shimcha ma'no izlashga yoki shunchaki kulgili yoki qiziqarli ohangda qabul qilinishi mumkin.

Bu masalalarning lingvistik pragmatika tarkibiga kiritilishining asosi bor. Lingvistik pragmatika va uning muammolari nutqiy akt, tag ma'no, pressupozitsiya va kinoya turlari doimo subyekt-obyekt, so'zlovchi-tinglovchi munosabatida namoyon bo'ladi. Tag ma'no so'zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshirib u nutq ishtirokchilaridan birortasini kelgusi nutq vaziyatidan ogoh etadi. Tag ma'no o'zining semantik strukturasi xabar qilish va nomlash funksiyasini bajarishiga ko'ra dastlab 2 ajratiladi:

1. Kommunikativ tag ma'no
2. Referensial tag ma'no

Kommunikatsiya akt ishtirokchilarining ichki maqsad asosidagi mazmunning o'zaro individual bayoniga xos ifodalar kommunikativ tag ma'no ko'rinishlari sifatida ajratiladi: Jumladan: Shukur Xolmirzayevning "*Ko'ngil*" sarlavhali hikoyasida ko'ngil tushunchasi oddiy insonning qalbi, yuragi tushunchalari bilan sinonim bo'lgan leksik birlik hisoblanadi. Ammo ko'ngil sarlavhasining tagma'nosi, hikoya qahramoni bo'lgan bola o'zining do'sti Narzulla ismli (otasi yo'q) yetim bolani ovga olib borib, ov o'ljasidan "*Лекин, берсам, унда битта каклик билан уйга кириб бораманми? Нурмат Качал кўрса, «Ҳа, аранг битта отдингми?» демайдимми? Ёки, «Аслида,*

*отолмабсан-у, бирорта овчидан ялиниб олибсан-да», дейди. Ота-онам-чи?»»* kabi arziyas sabablar bilan bebahra qiladi. Uyga olib borilganda maqtanishga uchun hech kim yo`qligi uchun “*дахлиздаги ташландиқ шкаф устига отдим дахлиздаги ташландиқ шкаф устига отдим-да, шарт ечиниб кўрпага кирдим. » deydi. Keyin turib qarasa bu kakkliklar mushukning nasibasiga aylanganini ko`rib afsuslanadi. “Ko`ngil” sarlavhali hikoyada o`zbeklarga xos bo`lgan “yetimni haqqi boshqaga buyurmasligi” haqidagi kommunikativ tagma`nosida ilgari suriladi.*

Tag ma`no mazmuni ifodaning nominativ xususiyatlaridan birini anglatishiga ko`ra **referensial tag ma`no** deb yuritiladi. Referensial tag ma`no ko`rinishlarida so`zlovchi o`z ichki maqsadi bilan bog`liq referensial belgilar xususida so`z yuritadi:

Masalan: Shukur Xolmirzayevning “*Olma yemadim*” sarlavhali hikoyasida esa o`rtoqlari bilan birga sayrga chiqqan hikoya qahramoni so`roqsiz olingan olmani qaqrab ketganligi uchun bir tishlab tuflab tashlaydi. “Мен кулок солмадим. Пиёда юриб, эшагимни хайдаб кетдим. Довонга чиқиб олдим. Ўзимга энди жуда алам қилди: «Чиқиб олдим-ку? Ўлмадим-ку? — деб ўйладим. — Нега чидамадим? Нега ҳеч кимдан сўрамасдан олинган олмани оғзимга солдим. Чидаш мумкин экан-ку? Демак, киши тўғри яшай олади...»» deb o`zini ayblaydi. “*Olma yemadim*” hikoya qahramoni hech kimdan so`ramasdan olingan olmani tishlagani uchun o`zini aybdor hisoblaydi, qalbida sabrsizlik tufayli tishlab tuflangan olma uning qalbida alamli tuyg`usini uyg`otadi. Bu esa “*Olma yemadim*” sarlavhali hikoyada ichki hissiy referensial tagma`no ifodalaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Азнаурова, Э.С. Прагматика художественного слова Текст. / Э.С. Азнаурова. Ташкент: Фан, 1988. - 121 с.
2. Апресян Ю.Д. Прагматическая информация для толкового словаря Текст. // Прагматика и проблемы интенциональности. М.: Ин-т языкознания АН СССР, 1988. - С. 7-44.

3. Арнольд, И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982.- №4.-С. 83-91.
4. Арутюнова, Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. // Новое в зарубежной лингвистике. М.: Прогресс, 1985. - Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. - С.3-42.
- 5.Багдасарян В.Х. Проблема имплицитного (Логико-методологический анализ). / Отв. ред. Г.А. Геворкян. Ер: Изд-во АН Арм. ССР, 1983.- 138с.
6. Долинин, К. А. Имплицитное содержание высказывания Текст. / К. А. Долинин // Вопросы языкознания. 1983. - № 6. - С. 37 - 47.
- 7.Кухаренко В.А. Типы и средства выражения импликации в английской художественной речи (на материале прозы Э.Хемингуэя) // Филологические науки. М., 1974. - №1